

**URGANCH DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.01/2025.27.12.Ped.12.01 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**URGANCH DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**DO‘SCHONOV SHODYORBEB YO‘LDOSHEVICH**

**BO‘LAJAK TEXNOLOGIYA FANI O‘QITUVCHILARINING IJODIY  
LOYIHALAR ORQALI MAXSUS KOMPETENSIYALARINI  
RIVOJLANTIRISH METODIKASI**

**13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (texnologik ta’lim)**

**PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)**

**Do'schonov Shodyorbek Yo'ldoshevich**

Ijodiy loyihalash asosida bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining maxsus kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish.....3

**Дўсчонов Шодёрбек Йўлдошевич**

Методика развития специальных компетенций будущих учителей технологии через творческие проекты .....21

**Duschonov Shodyorbek Yuldoshevich**

Methodology for developing special competencies of future technology teachers through creative projects.....39

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ

List of publications.....44

**URGANCH DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.01/2025.27.12.Ped.12.01  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**URGANCH DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**DO‘SCHONOV SHODYORBЕК YO‘LDOSHEVICH**

**BO‘LAJAK TEXNOLOGIYA FANI O‘QITUVCHILARINING IJODIY  
LOYIHALAR ORQALI MAXSUS KOMPETENSIYALARINI  
RIVOJLANTIRISH METODIKASI**

**13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (texnologik ta’lim)**

**PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Urganch — 2026**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.PhD/Ped.10015 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Urganch davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.urspi.uz](http://www.urspi.uz)) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Xolmatova Ziroat Anvarovna**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Ro'ziyev Erkin Iskandarovich**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Jo'raev Akmal Rozzoqovich**  
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),  
professor

**Yetakchi tashkilot:**


**Jizzax davlat pedagogika universiteti**

Dissertatsiya ishi himoyasi Urganch davlat pedagogika instituti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.01/2025.27.12.Ped.12.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil "17" aprel soat 09:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 220100, Urganch shahri, Gurlan ko'chasi, 1-A uy) Tel.: (99862) 226-37-87; faks: (99862) 226-37-87; e-mail: [study\\_info@urspi.uz](mailto:study_info@urspi.uz).

Dissertatsiya matni bilan Urganch davlat pedagogika instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (3 raqam bilan ro'yxatga olingan.) (Manzil: 220100, Urganch shahri, Gurlan ko'chasi, 1-A uy) Tel.: (99862) 226-37-87; faks: (99862) 226-37-87; e-mail: [arm@urspi.uz](mailto:arm@urspi.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "07" aprel kuni tarqatildi.

(2026-yil "07" aprel dagi 3 raqamli reyestr bayonnomasi)



**F.R. Madraximova**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy  
kengash raisi, p.f.d., professor

**T.T. Absalamov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy  
kengash ilmiy kotibi, p.f.f.d., dotsent

**E.I. Ro'ziyev**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy  
kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,  
p.f.d., professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati** Bugungi kunda jahon miqyosida olib borilayotgan ko‘plab islohotlarning bosh maqsadi inson salohiyatini yuksaltirish, uning qadr-qimmatini ulug‘lash, ma‘naviy barkamol, keng dunyoqarashga ega shaxsni tarbiyalash va farovon hayot sharoitlarini yaratishga qaratilgan. Xususan, rivojlangan davlatlar ta‘lim tizimi ilg‘or tajribalaridan samarali foydalanish, kadrlarning kasbiy mahorati va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish, bo‘lajak mutaxassislarni tanqidiy fikrlashga, muammoli vaziyatlarni tahlil qilishga va ularning samarali yechimlarini ishlab chiqishga o‘rgatish bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biridir. Ta‘lim sohasida, xususan texnologiya fani o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida maxsus kompetensiyalarni rivojlantirish orqali ularning nafaqat pedagogik, balki tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyoj ham sezilarli darajada ortib bormoqda.

Dunyo miqyosida bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy-pedagogik faoliyatga innovatsion yondashuv asosida tayyorlash, ularning estetik didini shakllantirish, maxsus kompetensiyalarini rivojlantirish hamda ta‘lim-tarbiya jarayonini yuqori samaradorlik bilan tashkil etishga oid ilmiy izlanishlar keng ko‘lamda olib borilmoqda. Xususan, umumiy o‘rta ta‘lim muassasalari uchun texnologiya fani o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida buyumlarni loyihalash, ijodiy yondashuvni rivojlantirish, tadbirkorlik va ishbilarmonlikni shakllantirish, shuningdek, robototexnika kabi maxsus kompetensiyalarni chuqurlashtirishga alohida e‘tibor qaratilishi zarur. Texnologiya fani o‘qituvchisi yosh avlodga nafaqat amaliy bilim va ko‘nikmalarni berishi, balki ularni kelajakda kasb-hunar egasi sifatida jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishlariga tayyorlashga ham mas‘uldir. Shu bois, texnologiya fanining ta‘lim mazmuni o‘quvchilarni kreativ fikrlash, innovatsion g‘oyalarni ilgari surish, amaliy loyihalar orqali muammolarni mustaqil hal qilishga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim.

Respublikada oliy ta‘lim tizimini modernizatsiya qilish, xususan pedagogika sohasidagi kadrlar tayyorlash jarayonini raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. “Xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta‘limning ilg‘or standartlarini joriy etish, jumladan, o‘quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo‘naltirilgan ta‘limdan amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta‘lim tizimiga bosqichma-bosqich o‘tish; oliy ta‘limning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, xorijiy ta‘lim va ilm-fan texnologiyalarini jalb etish”<sup>1</sup> kabi bugungi kunning eng muhim masalalari alohida ta‘kidlangan.

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-son “Ta‘lim to‘g‘risidagi Qonuni”, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta‘lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-sonli, 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli Qarori, 2018-yil 5-iyundagi Oliy ta‘lim

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi 5847-sonli Farmoni.

muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-sonli Qarori, 2022-yil 22-iyundagi "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-289 sonli Qarori va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" kabi ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Respublika oliy ta'lim tizimida bo'lajak texnologik ta'lim va kasb ta'limi o'qituvchilari kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning turli jihatlari Sh.S.Sharipov, N.A.Muslimov, Q.T.Olimov, N.N.Karimova, J.A.Hamidov, O'.Q.Tolipov, O.A.Qo'ysinov, L.R.Zaripov, O.O.Karimov, A.H.Sodiqova, O.Q.Musayev, J.R.Turmatov, Sh.R.Urakov, N.T.Orinbetov, K.A.Kutlimuradov kabi olimlar tomonidan o'rganilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlarida N.V.Kuzmina, P.I.Pidkasistiy, V.A.Slastenin bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashning nazariy jihatlari, V.I.Baydenko, I.V.Grishina, N.A.Dolgix, E.F.Zeer, D.A.Ivanov, M.D.Ilyazova, S.I.Mokrousov, I.V.Robert, V.A.Starodubsev, V.A.Sitarov, R.X.Tugeshevlar kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish muammolari bilan shug'ullangan.

Xorijiy davlatlarda texnologik ta'lim mazmunini zamonaviylashtirish, texnologik kompetentlikni shakllantirish, uni jamiyatdagi ijtimoiy o'zgarishlarga moslashtirish masalalari H.Miyakowa, G.Kulanthaivel, H.Shibata, A.Pecchi, D.Bell, D.Medous, P.Kuusi, E.Toftler, J.Masudalar tomonidan tadqiq etilgan.

Tadqiqot mavzusiga oid mavjud ilmiy ishlanmalar va manbalarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, respublika ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish masalasiga oid ayrim ilmiy xulosalar mavjud. Biroq, mavjud adabiyotlar va tadqiqotlar natijalarini chuqur o'rganish shuni anglatadiki, ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalar yordamida samaradorlikni oshirish, xususan, bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining maxsus kompetensiyalarini rivojlantirishda ijodiy loyihalar asosida buyumlar tayyorlash masalalari hali yetarli darajada monografik tadqiqot predmeti sifatida o'rganilmagan.

Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini ergonomik shart-sharoitlarni inobatga olgan holda kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida innovatsion texnologiyalar va ijodiy loyihalar asosida buyumlar tayyorlash imkoniyatlari to'liq ishlab chiqilmagan. Mazkur jarayonda bu texnologiyalarni o'quv faoliyatiga psixologik va pedagogik jihatdan samarali integratsiyalash bo'yicha ilmiy asoslangan metodik tavsiyalar ishlab chiqilmagan. Shu sababli, bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining maxsus kompetensiyalarini rivojlantirishga oid metodikani takomillashtirish masalasi dolzarb ilmiy-tadqiqot muammosi sifatida namoyon bo'lmoqda.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Ushbu dissertatsiya tadqiqoti Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti Qoraqalpog'iston filiali ilmiy tadqiqot rejasining AI-XT-0-92997 raqamli "Yoshlarni umuminsoniy, milliy va tarixiy qadriyatlar uyg'unligi asosida ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning muammolari" nomli amaliy loyiha doirasida bajarilgan (2023–2025-yy.).

**Tadqiqotning maqsadi** bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining ijodiy loyihalar orqali maxsus kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish va amaliyotga tatbiq etishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining maxsus kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlarini kasbiy kontekstda tahlil qilish hamda loyihalash, ijodiy-innovatsion va texnologik-metodik komponentlarining tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarga ta'sirini darajali differentsiallashtirish;

bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilari maxsus kompetensiyalarini rivojlantirishning maqsad–jarayon–natija uzviyligiga asoslangan pedagogik modelni ishlab chiqish hamda unda ijodiy loyihalarning bosqichma-bosqich rivojlantirilishini mustaqillik, ijodkorlik va amaliy kompetensiyalarga muvofiqqligini ta'minlash mexanizmlarini asoslash;

bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining maxsus kompetensiyalarini ijodiy loyihalar orqali rivojlantirish jarayonini takomillashtirish, ta'lim mazmunini real muammoli loyihalar va dual ta'lim elementlari bilan integratsiyalash hamda innovatsion-texnik-didaktik vositalarni metodik jihatdan moslashtirish yo'llarini ishlab chiqish;

oliy ta'lim muassasalarida talabalarning maxsus kompetensiyalarini ijodiy loyihalar orqali rivojlantirishni nazorat qilish va baholash mezonlarini ishlab chiqish, indikator va deskriptorlar asosida monitoring tizimini takomillashtirish hamda uning samaradorligini aniqlash.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida pedagogika oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining maxsus kompetensiyalarini rivojlantirish jarayoni olingan.

**Tadqiqotning predmeti** bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining maxsus kompetensiyalarini rivojlantirishning shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Mazkur tadqiqot jarayonida texnologik ta'limning rivojlanish yo'nalishlari metodologik va nazariy jihatdan tahlil qilindi. Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarida maxsus bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish hamda rivojlantirishda tizimli yondashuv qo'llanildi. Shu bilan birga, tajriba materiallari tahlil va sintez qilindi, kuzatish hamda so'rovnoma metodlari orqali talabalarning bilim darajasi, amaliy ko'nikma va malakalari, shuningdek, kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lgan maxsus kompetensiyalari diagnostika qilindi. Pedagogik tajriba-sinov ishlari natijasida olingan ma'lumotlar matematik va statistik usullar yordamida qayta ishlanib, umumlashtirilgan xulosalar chiqarildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining maxsus kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari kasbiy kontekstidagi loyihalash, ijodiy-

innovatsion, texnologik-metodik komponentlarini tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarga ta'sirini darajali differensiallash, amaliy faoliyatga yo'naltirishni innovatsion-amaliy faoliyatga integratsiyalashni reflektiv modulli baholash asosida aniqlashtirilgan;

bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilari maxsus kompetensiyalarini rivojlantirish modeli maqsad-jarayon-natija uzviylikida ijodiy loyihalarni rivojlantirish bosqichlarini mustaqillik, ijodkorlik amaliy kompetensiyalarga muvofiqligini ta'minlash, loyihaviy ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqarish bilan integratsiyalash asosida takomillashtirilgan;

bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining ijodiy loyihalar orqali maxsus kompetensiyalarini rivojlantirish jarayoni ta'lim mazmunining maqsadga muvofiqligini natijaga yo'naltirilgan real muammoli loyihalarga dual ta'lim elementlarini singdirish, ijodiy-mustaqil izlanishga innovatsion-texnik-didaktik vositalarini metodik moslashtirish asosida takomillashtirilgan;

oliy ta'lim muassasalarida talabalarning ijodiy loyihalar orqali maxsus kompetensiyalarini rivojlantirishni nazorat qilish va baholash mezonlari ijodiy va amaliy faoliyatni rag'batlantirishni real kasbiy ko'nikmalarda aks ettirish, indikator va deskriptorlarini kiritish orqali monitoring va tahlilni kuchaytirish asosida optimallashtirilgan.

#### **Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

oliy ta'lim muassasalarida 60111300 – Texnologik ta'lim yo'nalishi o'quv rejasining majburiy fanlar blokiga kiritilgan “Xalq hunarmandchiligi va badiiy loyihalash” va “Texnologik ta'lim metodikasi” fanlarining o'quv-uslubiy ta'minoti hamda bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini tayyorlash mazmuni, tuzilmasi va uni oliy ta'lim muassasalarida joriy etishda innovatsion texnologiyalar, ijodiy loyihalar tayyorlash tamoyillari ishlab chiqilgan;

bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining maxsus kompetensiyalarini (buyumlarni loyihalash, ijodiy yondashuv, tadbirkorlik va ishbilarmonlik hamda robototexnik kompetensiyaga oid) rivojlantirishda to'garak mashg'ulotlarini tashkil etish bo'yicha uslubiy tavsiyalar va talabalarning maxsus kompetensiyalarini rivojlantirish modeli, metodikasi ishlab chiqilgan hamda maxsus kompetensiyalarining rivojlanganlik darajalari va ko'rsatkichlari aniqlangan;

texnologik ta'lim yo'nalishi darslarini samarali tashkil qilish, talabalarning maxsus kompetensiyalarini rivojlantirish “Xalq hunarmandchiligi va badiiy loyihalash” va “Texnologiya ta'limi metodikasi” fanidan o'quv qo'llanma (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 21-avgustdagi 316-sonli buyrug'i) tayyorlangan va foydalanilmoqda. Shuningdek, Umumiy pedagogika (pedagogik mahorat) fanidan o'quv qo'llanma (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 25-iyundagi 218-sonli buyrug'i) tayyorlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** qo'llanilgan yondashuv, metodlar va nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbaalardan olingani, keltirilgan tahlillar va tajribasinov ishlari samaradorligining matematik-statistika metodlari tahlili yordamida asoslangani, xulosa, taklif va tavsiyalarining amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchisi maxsus kompetensiyalarining turlari, xususiyatlari aniqlangani, maxsus kompetensiyalarni ijodiy loyihalar tayyorlash orqali rivojlantirish imkoniyatlari o‘rganilganligi, bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchisining maxsus kompetensiyalarini rivojlantirish modeli va metodikasi ishlab chiqilganligi, maxsus kompetensiyalarning rivojlanganlik darajalari, kasbiy faoliyat turlariga tayyorgarlik darajalarini baholash mezonlari mukammallashtirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarining maxsus kompetensiyalarini hamda innovatsion ergonomik shart-sharoitlar asosida kasbiy faoliyatga yo‘naltirilgan amaliy ta’lim va umum-mehnat ko‘nikmalarini rivojlantirishda mahsulot ishlab chiqarish jarayonlari bilan bog‘liq kasb-hunarga yo‘naltirish va o‘quv-metodik adabiyotlar ishlab chiqishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Ijodiy loyihalash asosida bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarining maxsus kompetensiyalarini rivojlantirish bo‘yicha tadqiqot natijalari asosida:

tadqiqot natijalari tahlili asosida aniqlangan xulosa, taklif va tavsiyalar bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarining maxsus kompetensiyalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ijodiy loyiha ishlarini tayyorlash hamda ularni amaliyotga tatbiq etish metodikasini takomillashtirishga xizmat qiladi. Mazkur ilmiy tavsiyalar “Xalq hunarmandchiligi va badiiy loyihalash” va “Texnologiya ta’limi metodikasi” fanlari uchun o‘quv qo‘llanma yaratish jarayonida nazariy va amaliy asos sifatida qo‘llanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 21-avgustdagi 316-sonli buyrug‘i asosida);

tadqiqot natijalari oliy o‘quv yurtlarida bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarining (buyumlarni loyihalash, ijodiy yondashuv, tadbirkorlik va ishbilarmonlik hamda robototexnikaga oid) maxsus kompetensiyalarini “Creative project method” (ijodiy loyihalash metodi), Dizayn fikrlash (Design thinking), Case-study metodlari asosida o‘qitish metodikasi ishlab chiqilgan, maxsus kompetensiyalarini rivojlantirishning diagnostik baholash (reproduktiv, produktiv va kreativ) mezonlari aniqlangan. Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi Milliy instituti Qoraqalpog‘iston filialidagi “Yoshlarni umuminsoniy, milliy va tarixiy qadriyatlar uyg‘unligi asosida ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning muammolari” mavzusidagi amaliy loyihasida “Xalq hunarmandchiligiga oid ijodiy loyihalarni bajarish orqali yoshlarning milliy va tarixiy qadriyatlarga bo‘lgan his-tuyg‘ularini uyg‘otish” qismini bajarishda foydalanilgan. (Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi Milliy instituti Qoraqalpog‘iston filialining 2025-yil 17-noyabrdagi 432-sonli ma’lumotnomasi). Natijada ta’limning mazmuni takomillashgan bo‘lib, ta’lim oluvchilarning bilimlari va tadbirkorlik ko‘nikmalari yanada oshganligini ko‘rish mumkin;

tadqiqot ishida bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarining maxsus kompetensiyalarini rivojlantirish maqsadida ijodiy loyihalar tayyorlash bosqichlari, amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish metodikasini o‘rgatish uchun yaratilgan materiallar, taklif va tavsiyalardan “Xalq hunarmandchiligi va badiiy loyihalash”

fanidan va “Texnologiya ta’limi metodikasi” nomli o‘quv qo‘llanmani (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 21-avgustdagi 316-sonli buyrug‘i asosida) ishlab chiqishda foydalanilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazildi.


**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi yuzasidan jami 23 ta ilmiy, ilmiy-uslubiy ishlar chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta maqola, jumladan, 6 ta xorijiy, 7 ta respublika jurnallarida nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat bo‘lib, dissertatsiyaning hajmi 130 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi ko‘rsatilgan, muammoning o‘rganilganlik darajasi yoritilgan, ishning maqsad va vazifalari, tadqiqot obyekti va predmeti aniqlangan, tadqiqot usullari, dissertatsiyaning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati asoslab berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, e’lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarining ijodiy loyihalar orqali maxsus kompetensiyalarini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari**” nomli birinchi bobida bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilariga qo‘yiladigan umumiy malaka talablari, tayanch, kasbiy va maxsus kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy va uslubiy jihatlari o‘rganilgan. Bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarining maxsus kompetensiyalarini rivojlantirishga doir darslik, o‘quv qo‘llanmalar, dissertatsiyalar tahlil qilingan va zaruriy xulosalarga kelingan. Shuningdek, “kompetensiya”, “tayanch kompetensiya” “kasbiy kompetensiya”, va “maxsus kompetensiya” tushunchalariga berilgan ta’riflar tahlil qilingan (1-rasmga qarang).



1-rasm. Kompetensiya turlari

Pedagogikaga oid lug‘atlarda, maxsus fanlarni o‘qitish metodikasiga doir adabiyotlarda berilgan ma’lumotlar tahlil qilinib, maxsus kompetensiyani o‘qituvchi faoliyatidagi muhim jihatlari to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan. Bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarining maxsus kompetensiyalarini rivojlantirishda ijodiy loyihalarning

didaktik imkoniyatlari ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berilgan. Tadqiqotning asosiy g'oyasi texnologik ta'lim jarayonida ijodiy loyihalarni o'quv jarayonining markaziy metodik vositasi sifatida qo'llash orqali talabalarda kasbiy, amaliy, innovatsion va tadbirkorlik kompetensiyalarni rivojlantirishdan iborat. Tadqiqotda ijodiy loyihalarning didaktik xususiyatlari shaxsga yo'naltirilgan o'quv jarayonini tashkil etish, nazariy bilimlarni amaliy muhitda qo'llash, fanlararo integratsiyani ta'minlash, yakuniy natijaga yo'naltirilgan motivatsiyani oshirish hamda refleksiv (o'zini tahlil qilish va baholash) kompetensiyalarni rivojlantirish kabi jihatlar aniqlangan.

Ijodiy loyihalar orqali tashkil etilgan didaktik jarayon texnologik ta'lim yo'nalishida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishiga ko'p qirrali ta'sir ko'rsatadi. Ushbu yondashuv talabalarni faqat nazariy bilimlar bilan cheklanib qolmasdan, kundalik hayotda uchraydigan texnologik muammolarni hal qilish, yangi g'oyalar yaratish va amaliy faoliyatga tatbiq etish ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltiradi.

Zamonaviy texnologik rivojlanish sharoitida texnologik ta'lim jarayonini takomillashtirish, xususan, to'garak mashg'ulotlarida ijodiy loyihalar asosida o'qitishning ilmiy-metodik ahamiyati yoritilgan. Ishda an'anaviy o'quv shakllarini amaliyotga yo'naltirilgan, innovatsion va ijodiy faoliyat bilan uyg'unlashtirish zarurligi asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, to'garak mashg'ulotlarida ijodiy loyihalash asosida o'qitish talabalarda mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarda yechim topish, texnik tafakkur, tadbirkorlik va ijodkorlik kompetensiyalarini shakllantiradi. Ushbu metodika talabalarning fanlarga bo'lgan qiziqishini oshiradi, nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lashga, iqtisodiy tahlil qilishga va kelgusidagi kasbiy faoliyatini loyihalay olishga imkoniyat yaratadi.

Ijodiy loyihalar bosqichma-bosqich tayyorlov, konstruksiyalash, texnologik, amaliy va yakuniy bosqichlarda amalga oshiriladi. Bu jarayon talabalarda rejalashtirish, muhandislik tafakkuri, iqtisodiy tahlil va o'z faoliyatini baholash ko'nikmalarini rivojlantiradi(1-jadvalga qarang).

## 1-jadval

### Ijodiy loyiha ishi quyidagi bosqichlarda olib boriladi

№	Bajarish bosqichlari	Ishning mazmuni
1	<b>Tayyorlash bosqichi</b>	<b><i>Mavzuni tanlash va uni asoslash:</i></b> 1. Mahsulotga talab borligini aniqlash va tanlovning to'g'ri ekanligini isbotlash. 2. Texnik vazifalarni shakllantirish. 3. Loyiha obyekti bo'yicha ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish. 4. Texnik ma'lumotnomani tayyorlash.
2	<b>Konstruksiyalash bosqichi</b>	<b><i>Loyiha konstruksiyasini tayyorlash bo'yicha talablar:</i></b> 1. Tashqi ko'rinishi va dizayn jihati bo'yicha ko'rib chiqish: mahsulot konstruksiyasini o'rganish; mahsulot dizaynini aniqlash; loyiha eskizini ishlab chiqish.

3	<b>Texnologik bosqich</b>	<b><i>Mahsulot tayyorlash texnologik jarayonini ishlab chiqish:</i></b> 1. Loyihalashtirilayotgan mahsulot tayyorlash uchun amalga oshiriladigan texnologik jarayonlar ketma-ketligini belgilash. 2. Texnologik xaritani ishlab chiqish. 3. Kerakli asbob-uskuna va moslamalarni tayyorlash.
4	<b>Mahsulotni tayyorlash bosqichi</b>	1. Ish o‘rnini tashkil etish. 2. Texnologik xarita asosida amaliy ishlarni bajarish. 3. Ish joyini yig‘ishtirish va ishni yakunlash.
5	<b>Yakuniy bosqich</b>	<b><i>Ijodiy loyiha taqdimotini tayyorlash va o‘tkazish:</i></b> 1. Iqtisodiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha ma‘lumotlarni tayyorlash. 2. Ekologik jihatdan ko‘rib chiqish. 3. Mahsulotni reklama qilishga tayyorlash. 4. Loyihaga tegishli adabiyotlar ro‘yxatini tuzish.

Tadqiqotda “talab (ehtiyoj)” tushunchasi ijodiy loyihaning metodologik asosini tashkil etishi ta’kidlanadi (2-jadvalga qarang). Talaba tanlagan mahsulot yoki yechimning foydalilik darajasini aniqlash orqali loyiha faoliyati ijtimoiy va amaliy ahamiyat kasb etadi, natijada o‘quvchilar nafaqat texnik, balki iqtisodiy, ekologik va innovatsion jihatdan asoslangan mahsulot yaratish salohiyatiga ega bo‘ladilar. Shunday qilib, tadqiqot texnologik ta’limda ijodiy loyihalash asosida o‘qitishning samaradorligini ilmiy jihatdan asoslab, bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarini ijodkor, raqobatbardosh va innovatsion tafakkurga ega mutaxassis sifatida tayyorlashning samarali yo‘lini taklif etadi.

## 2-jadval

### Talab (ehtiyoj) asosida foydalanish yo‘nalishlari:

<b>№</b>	<b>Holat</b>	<b>Foydalanish yo‘nalishi</b>
<b>1</b>	<b>Talab (ehtiyoj)</b>	Bu buyumdan maktab ustaxonasida foydalanish mumkin.
		Bu buyumni yaqinlarimga sovg‘a sifatida tayyorlash mumkin.
		Ota-onam yoki oila a‘zolarimning tug‘ilgan kuniga sovg‘a sifatida tayyorlash mumkin.
		Bu buyum tabiiy va amaliy fanlar xonalarida foydalanish uchun kerak bo‘ladi.
		Bu mahsulotdan uyni ta‘mirlash ishlarida foydalanish mumkin.
		Bu mahsulotdan ishlab chiqarish va ro‘zg‘or ishlarida foydalanish mumkin va hokazo.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “Bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarining ijodiy loyihalar orqali maxsus kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi” deb

nomlanib, bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilari uchun to'rtta asosiy maxsus kompetensiya shakllantirish yo'nalishlari aniqlangan:

**1. Buyumni loyihalash kompetensiyasi** – texnik chizma, dizayn, material tanlash, texnologik xarita tuzish va mahsulotni ishlab chiqish jarayonini puxta bilish orqali texnologik tafakkur va dizayn madaniyatini rivojlantirish.

**2. Ijodiy yondashuv kompetensiyasi** – muammolarga innovatsion yechim topish, mavjud resurslardan samarali foydalanish, noodatiy buyum yaratish, uning ekologik va iqtisodiy jihatdan foydali mahsulot yaratish salohiyatini oshirish.


**3. Tadbirkorlik va ishbilarmonlik kompetensiyasi** – ijodiy loyihalarni iqtisodiy jihatdan asoslash, mahsulot narxi, xarajat va foyda nisbatini aniqlash, marketing va brending ko'nikmalarini shakllantirish.

**4. Robototexnik kompetensiyasi** – bu shaxsning robototexnik tizimlarni yaratish, ulardan foydalanish, ularni boshqarish, dasturlash va tahlil qilishga oid nazariy bilimlari, amaliy ko'nikmalari hamda texnik-ijodiy qobiliyatlarining integratsiyasidir. Robototexnik kompetensiyaning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri talabaning texnik-texnologik bilimlarga ega bo'lishidir.

Bundan tashqari, ishda CorelDRAW grafik dasturi va 1610T lazer kesish stanogi texnologik ta'lim jarayonida qo'llanishining amaliy ahamiyati yoritilgan. Ushbu texnologiyalar yordamida talabalarda zamonaviy grafik dizayn, muhandislik loyihalash va yuqori aniqlikdagi mahsulot yaratish hamda ijodiy loyihalarini tijoratlashtirish ko'nikmalari shakllanadi.

Tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan model texnologik ta'lim jarayonini takomillashtirish, talabalarning ijodkorlik, texnik tafakkur, mehnat madaniyati, innovatsion fikrlash va tadbirkorlik kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, u o'qituvchi tayyorlashning nazariy va amaliy jihatlarini uyg'unlashtiruvchi samarali pedagogik tizim sifatida tavsiya etiladi. Tadqiqotda bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining maxsus kompetensiyalarini ijodiy loyihalar orqali rivojlantirish metodikasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot doirasida taklif etilgan metodik yondashuv nazariy mashg'ulotlarni ijodiy ishlanmalar yaratish bilan uzviy bog'lashga asoslanadi. Natijada talabalar nafaqat nazariy bilimlarni o'zlashtiradi, balki ularni amaliy faoliyatda qo'llash orqali analitik fikrlash, muammolarni hal etish, iqtisodiy tahlil yuritish hamda ekologik baholash kabi muhim kasbiy ko'nikmalarni egallaydi. Ushbu metodik tizim o'qituvchi tayyorlashning nazariy va amaliy jihatlarini uyg'unlashtiruvchi kompleks pedagogik yechim sifatida tavsiya etiladi.



2-rasm. Ijodiy loyihalar orqali bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining maxsus kompetensiyalarni rivojlantirish modeli

Dissertatsiyaning “**Pedagogik tajriba-sinov ishlari va olingan natijalar tahlili**” deb nomlangan uchinchi bobida pedagogik tajriba-sinovni tashkil etish, o‘tkazish va uning tahliliy natijalari keltirilgan.

Tajriba-sinov va nazorat guruhlarida jami 308 nafar talabalar ishtirok etdi. Shundan, Urganch davlat pedagogika instituti misolida tajriba-sinov ishlarida jami 112 nafar jumladan, tajriba guruhlarida 58 nafar, nazorat guruhida 54 nafar, Shahrisabz davlat pedagogika instituti misolida tajriba-sinov ishlarida jami 94 nafar, tajriba guruhlarida 48 nafar, nazorat guruhida 46 nafar va Samarqand davlat pedagogika instituti misolida tajriba-sinov ishlarida jami 102 nafar, tajriba guruhlarida 52 nafar, nazorat guruhida 50 nafar talaba-respondentlar qatnashdi. (3-jadvalga qarang).

### 3-jadval

#### Ijodiy loyihalash asosida bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarining maxsus kompetensiyalarini rivojlanganlik darajasini tahlil qilishning mezonlari va darajalari

Yuqori daraja	O‘rta daraja	Past daraja
<b>Reproduktiv mezon</b>		
Talaba mavzuni to‘liq eslaydi, tushunchalarni mustaqil sharhlaydi, ularni vazifalarda to‘g‘ri qo‘llay oladi. Topshiriqlarni o‘qituvchi yordamisiz bajaradi va izohlay oladi. Nazariyani to‘liq va bog‘liq holda bayon qiladi; standart amallarni xatosiz, mustaqil bajaradi. Chizmada to‘liq o‘lchamlar, qatlamlar; asbob va rejimlarni to‘g‘ri tanlaydi; texnologik kartani to‘liq rasmiylashtiradi.	Talaba asosiy ma‘lumotlarni eslay oladi, namunalar bo‘yicha vazifalarni bajaradi. Termin va tushunchalardan foydalanadi, biroq mustaqil sharhlashda qiyinchilik bor. O‘qituvchi rahbarligi ostida ishlaydi. Asosiy nazariyani qayta bayon qila oladi; namunaga tayangan holda standart amallarni bajaradi. CoreDRAW‘da tayyor shablonni moslashtiradi; tex kartani ko‘rsatma bilan to‘ldiradi; xavfsizlik qoidalariga asosan rioya qiladi.	Talaba o‘quv materialini to‘liq eslay olmaydi, tayyor namunani takrorlashda qiynaladi, termin va asosiy tushunchalarni chalkashtiradi. Amaliy topshiriqlarni bajarishda doimo o‘qituvchi yordamiga tayanadi. Asosiy tushunchalarni parcha-parcha eslaydi; ko‘rsatmasiz ishlay olmaydi.
<b>Produktiv mezon</b>		
Talaba bilimlarni turli amaliy vaziyatlarda moslashtirib qo‘llay oladi, muammoni mustaqil hal qiladi, natija uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga oladi. Muammoni tahlil qiladi, optimal yechim topadi;	Talaba o‘rgatilgan bilimlarni amaliy topshiriqlarda qo‘llay oladi, biroq murakkab vaziyatlarda yo‘nalish olish uchun maslahatga muhtoj. Muammoni hal qilishda standart yondashuvdan foydalanadi. Oddiy	Talaba amaliy vazifalarda xatolarga yo‘l qo‘yadi, o‘rgatilgan usullarni vaziyatga moslay olmaydi. Muammoni hal qilish jarayonida to‘xtab qoladi. Amaliy vazifani mustaqil bajara olmaydi;


jarayonni boshqaradi.	barqaror	muammolarni yechadi; natija talab darajasida bo'ladi.	ko'p yo'l-yo'riq talab qiladi.
<b>Kreativ mezon</b>			
Talaba mustaqil ravishda yangi g'oyalar, modellar yoki texnologik yechimlar yaratadi. Innovatsion, noodatiy, ijodiy yondashuvi aniq namoyon bo'ladi. O'z g'oyasini asoslab beroladi. Original g'oya; foydalanuvchi markazidagi innovatsion yechim; barqarorlik va biznes mantig'i bor.	Talaba ayrim vazifalarda yangicha yondashuv taklif qilishi mumkin, lekin tashabbus doimiy emas. Ijodiy fikrlash bor, ammo tizimlashmagan. Modifikatsiya bor; funksional yaxshilanish mavjud.	Talaba faqat tayyor usullarni takrorlaydi, yangi g'oya taklif qilmaydi, ijodiy yondashuv shakllanmagan. G'oya andozadan chiqmaydi; yangilik kam.	

#### 4-jadval


### Ijodiy loyihalash asosida bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining maxsus kompetensiyalarini rivojlanganlik darajalari

№	Ko'rsatkichlar	OTM	Tajriba guruhi		Nazorat guruhi	
			Tajriba boshida	Tajriba oxirida	Tajriba boshida	Tajriba oxirida
1	O'rtacha arifmetik qiymat $(x, y)$	Urganch DPI	3,69	4,12	3,67	3,76
		Shahrisabz DPI	3,69	4,06	3,65	3,72
		Samarqand DPI	3,83	4,27	3,82	3,84
		Jami:	3,74	12,5	11,14	11,32
2	Samara-dorlik ko'rsatkichi $(\eta)$	Urganch DPI	1,12		1,02	
		Shahrisabz DPI	1,09		1,01	
		Samarqand DPI	1,11		1,005	
		Jami:	1,11		1,01	
3	O'rtacha qiymat ishonch oralig'i $(a_x \in, a_y \in)$	Urganch DPI	[3,49;3,90]	[3,92;4,32]	[3,46;3,88]	[3,54;3,98]
		Shahrisabz DPI	[3,47;3,91]	[3,84;4,28]	[3,43;3,87]	[3,5;3,94]
		Samarqand DPI	[3,61;4,05]	[4,06;4,48]	[3,59;4,05]	[3,61;4,07]
		Jami:	[3,52;3,95]	[3,94;4,36]	[3,49;3,93]	[3,55;4]
4	O'rtacha qiymat standart xatoligi $(s_x, s_y)$	Urganch DPI	0,78	0,76	0,8	0,82
		Shahrisabz DPI	0,77	0,7	0,75	0,77
		Samarqand DPI	0,82	0,76	0,82	0,84
		Jami:	0,79	0,74	0,79	0,81
5		Urganch DPI	2,8	2,42	2,96	2,97

	Aniqlanish ko'rsatkichi ( $c_x, c_y$ )	Shahrisabz DPI	3,02	2,74	3,03	3,05
		Samarqand DPI	2,97	2,74	3,04	3,1
		Jami:	2,93	2,54	3,01	3,04
6	Student (T) mezoni	Urganch DPI	3,07		0,6	
		Shahrisabz DPI	2,31		0,44	
		Samarqand DPI	2,93		0,13	
		Jami:	2,77		0,39	
7	Ko'rsatkichlar natijasi	Jami OTM	N <sub>1</sub> faraz qabul qilinadi.		N <sub>0</sub> faraz qabul qilinadi.	



**3-rasm. Tajriba guruhida talabalarning pedagogik tajriba-sinov natijalarining statistik tahlili diagrammasi**



**4-rasm. Nazorat guruhida talabalarning pedagogik tajriba-sinov natijalarining statistik tahlili diagrammasi**

